# Surxondaryo san’at saroyida 3-dekabr-Xalkaro nogironlar kuni munosabati bilan “Ehson kiyimlari” fondi hamkorligida tadbir bo’lib o’tdi.




Surxondaryo san’at saroyida 3-dekabr-Xalkaro nogironlar kuni munosabati bilan “Ehson kiyimlari” fondi hamkorligida tadbir bo’lib o’tdi.
Tadbirda sahovatpesha insonlar ko’magida tashkil etilgan “Ehson kiyimlari” fondi hamda Surxondaryo viloyati hokimligi tomonidan viloyatdagi kam ta’minlangan oilalarning 71 nafar farzandlari uchun turli xil qimmatbaho sovg’alar, zarur kiyim-kechaklar tuhfa etildi.
Tadbirning madaniy qismini yuqori badiiy saviyada o’tkazish maqsadida viloyat filarmoniyasi, Termiz ixtisoslashtirilgan san’at maktabi, 2-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi ijodiy jamoalari tomonidan ijro etilgan kuy-qo’shiq va raqslar bolajonlarga bayramona kayfiyat bag’ishladi hamda Toshkent shahridan tashrif

buyurgan taniqli estrada xonandasi Sanjey ijrosidagi qo’shiqlar tomoshabinlarga ko’tarinki kayfiyat ulashdi.











